

O'ZBEKISTONDA TADBIRKORLIKNI SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

Azimova Aziza Ilxomovna

aaiza6564@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyatining tarixiy ildizlari, mustaqillik yillaridan keyingi bosqichlari va hozirgi zamonaviy rivojlanish tendensiyalari tahlil qilinadi. Tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati, qonunchilik bazasining shakllanishi, xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash mehanizmlari va kichik biznesning iqtisodiy o'sishdagi roli yoritiladi. Shuningdek, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari ham ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: Tadbirkorlik, kichik biznes, O'zbekiston, iqtisodiy islohotlar, xususiy sektor, davlat qo'llab-quvvatlashi, biznes muhiti, qonunchilik, investitsiya, innovatsiya.

FORMATION AND DEVELOPMENT OF ENTREPRENEURSHIP IN UZBEKISTAN

Azimova Aziza Ilxomovna

aaiza6564@gmail.com

ANNOTATION

This article analyzes the historical roots of entrepreneurial activity in Uzbekistan, its stages after the years of independence, and current modern development trends. State policy aimed at developing entrepreneurship, the formation of the legislative framework, mechanisms for supporting the private

sector, and the role of small business in economic growth are highlighted. Existing problems and ways to overcome them are also considered.

Key words: Entrepreneurship, small business, Uzbekistan, economic reforms, private sector, state support, business environment, legislation, investment, innovation.

KIRISH

Hozirgi zamон iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik har qanday mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotida muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa, bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'lini tanlagan davlatlar uchun tadbirkorlikni rivojlantirish strategik ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonda ham mustaqillikka erishilgan dastlabki yillardan boshlab tadbirkorlik faoliyatini shakllantirish va uni har tomonlama qo'llab-quvvatlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Tadbirkorlik faolligining oshishi orqali yangi ish o'rnlari yaratilmoqda, aholi daromadlari ortmoqda, innovatsion g'oyalar amalga tatbiq qilinmoqda va iqtisodiyotda raqobat muhiti shakllanmoqda. Shu bilan birga, mamlakatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini rivojlantirish bo'yicha qonunchilik bazasi mustahkamlanmoqda, soliq va kredit imtiyozlari, ma'muriy soddalashtirishlar joriy etilmoqda.

Mazkur ishda O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyatining tarixiy rivojlanish bosqichlari, hozirgi holati va istiqbollari tahlil qilinadi. Shuningdek, sohadagi dolzarb muammolar va ularni hal etish yo'llari ham yoritiladi.[1]

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O'zbekistonda tadbirkorlikni shakllantirish va rivojlantirish jarayoni turli bosqichlardan iborat bo'lib, u mamlakatning iqtisodiy siyosati, qonunchilik islohotlari, institutsional o'zgarishlari va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar bilan chambarchas bog'liqdir. Mustaqillikning dastlabki yillarida iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, mulkchilik shakllarini diversifikatsiya qilish va bozor mexanizmlarini joriy etish asosiy vazifalardan biri edi. Bu jarayonda xususiy tadbirkorlik subyektlariga erkinlik berilishi muhim rol o'ynadi.[2]

2017-yildan boshlab O‘zbekistonda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish yangi bosqichga ko‘tarildi. Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida olib borilgan iqtisodiy islohotlar natijasida byurokratik to‘sislarni kamaytirish, ruxsatnoma va litsenziya tizimini soddalashtirish, kredit resurslariga kirishni kengaytirish kabi chora-tadbirlar joriy qilindi. Ayniqsa, “bir darcha” tizimi orqali ro‘yxatdan o‘tish jarayoni yengillashtirildi.

Shuningdek, yoshlar va ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan dasturlar ham ijobjiy natijalar berdi. Innovatsion tadbirkorlik, startaplar, elektron tijorat va raqamli texnologiyalardan foydalanish kabi yo‘nalishlar rivojlanmoqda. Bu esa iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Biroq, hali ham muammolar mavjud. Jumladan, ayrim hududlarda infratuzilma yetishmasligi, moliyaviy savodxonlik pastligi, soliq va nazorat organlari bilan bog‘liq muammolar, bank kreditlariga kirishdagi qiyinchiliklar — tadbirkorlik rivojiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun davlat tomonidan tizimli yondashuv va sektorlararo hamkorlik zarur.

Quyidagi 1-jadvalda O‘zbekistonda 2020–2024-yillarda ekologik yo‘nalishga ega kichik biznes loyihalari soni va ularning ulushi keltirilgan:

1-jadval [3]**2021–2024-yillarda ekologik yo‘nalishdagi kichik biznes loyihalari
(O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha)**

| Yil | Ekologik yo‘nalishdagi kichik biznes loyihalari soni | Kichik biznes umumiy loyihalaridagi ulushi (%) |
|------|--|--|
| 2021 | 1,125 | 3.2% |
| 2022 | 1,745 | 4.8% |
| 2023 | 2,318 | 6.5% |
| 2024 | 3,460 | 9.3% |

Ko‘rinib turibdiki, ekologik loyihalarning soni va ulushi yildan-yilga oshib bormoqda. Bu holat, davlat siyosatida yashil iqtisodiyotga o‘tish bo‘yicha e’tibor kuchaygani va kichik biznesning bu jarayonda faol ishtirok etayotganini ko‘rsatadi.

Ekologik yo‘nalishda, kichik biznesni rivojlantirishda davlatning eng muhim funksiyalaridan biri bu – moliyaviy rag‘batlantirish va imtiyozli kreditlar ajratishdir. Quyidagi 2-jadvalda ekologik loyihalar uchun kichik biznes subyektlariga ajratilgan davlat kreditlari hajmi ko‘rsatilgan:

2-jadval [4]**2021–2024-yillarda ekologik loyihalar uchun ajratilgan imtiyozli kreditlar**

| Yil | Ajratilgan kreditlar hajmi (mlrd so‘m) | O‘sish sur’ati (%) |
|------|--|--------------------|
| 2021 | 180 | — |
| 2022 | 295 | +63.8% |
| 2023 | 470 | +59.3% |
| 2024 | 720 | +53.2% |

Kredit hajmining o‘sib borayotgani – hukumatning ekologik innovatsiyalarni moliyaviy qo’llab-quvvatlashga intilayotganini tasdiqlaydi. Ayniqsa, qayta tiklanuvchi energiya, chiqindilarini qayta ishslash, bioorganik o‘g‘it ishlab chiqarish kabi yo‘nalishlarda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlar ustuvorlikka ega.

Quyidagi 3-jadvalda 2024-yil yakuni bo‘yicha ayrim hududlarda ekologik yo‘nalishdagi kichik biznes subyektlari soni ko‘rsatilgan:

3-jadval [5]**Hududlar bo‘yicha ekologik yo‘nalishdagi kichik biznes (2024-yil yakuni)**

| Hudud | Loyihalar soni | Ulushi (%) |
|-------------------|----------------|------------|
| Toshkent shahri | 820 | 23,7% |
| Farg‘ona viloyati | 510 | 14,8% |
| Qashqadaryo | 365 | 10,6% |
| Samarqand | 420 | 12,1% |
| Buxoro | 310 | 9,0% |
| Qoraqalpog‘iston | 290 | 8,4% |
| Boshqa viloyatlar | 860 | 21,4% |
| Jami | 3 575 | 100% |

Ushbu tahlildan ko‘rinib turibdiki, ekologik tadbirkorlik asosan iqtisodiy jihatdan rivojlangan va infratuzilmasi yaxshi bo‘lgan hududlarda faol amalga oshirilmoqda. Xususan, Toshkent shahri va Farg‘ona vodiysi viloyatlari bu sohada yetakchi pozitsiyada turibdi.[6]

O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy tizimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning o‘rni tobora ortib bormoqda. Yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonida ushbu subyektlar yuqori ekologik samaradorlikka ega innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatishda muhim vazifani bajaradi. Tadqiqot davomida quyidagi asosiy xulosalarga kelindi:

Birinchidan, davlat tomonidan ishlab chiqilgan ekologik siyosatlar va strategiyalar kichik biznesning ekologik yo‘nalishda rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashga xizmat qilmoqda. Yashil iqtisodiyotga o‘tishda kichik biznesning ekologik samaradorligini oshirish uchun hukumat tomonidan iqtisodiy va moliyaviy imkoniyatlar yaratilmoqda.[7]

Ikkinchidan, kichik biznesni rivojlantirishda davlat tomonidan berilayotgan imtiyozli kreditlar, soliq imtiyozlari hamda ekotexnologiyalarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari muhim ahamiyatga ega. Tahlil shuni ko‘rsatdiki, ushbu dasturlar kichik biznes subyektlarining ekologik faoliyatini kengaytirishda samarali rol o‘ynamoqda.

Uchinchidan, hududlar kesimida ekologik yo‘nalishdagi kichik biznesning rivojlanishi teng emas. Toshkent shahri va Farg‘ona viloyati ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari sabab yetakchi bo‘lsa, boshqa hududlarda bu yo‘nalishdagi faoliyatni kuchaytirish zarur.

To‘rtinchidan, kichik biznesda ekologik texnologiyalarni joriy etishda muammolar davom etmoqda. Texnologiyalar narxi, ishlab chiqarish xarajatlari va malakali mutaxassislar yetishmasligi sohaning rivojlanishiga to‘sinqlik qilmoqda.

Beshinchidan, kichik biznes faqat iqtisodiy foyda ko‘rish bilan cheklanmay, atrof-muhitni muhofaza qilish, ijtimoiy mas’uliyat va barqaror rivojlanish tamoyillariga ham

rioya qilishi lozim. Bunda davlat nazorati va rag‘batlantirish tizimlari muhim rol o‘ynaydi.

Yashil iqtisodiyotga o‘tishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning faol ishtirokini ta’minalash uchun quyidagi takliflar ilgari suriladi:[8]

1. Kichik biznes subyektlariga ekologik loyihalarni amalga oshirishda qulay moliyaviy shart-sharoitlar yaratish zarur. Imtiyozli kreditlar, soliq imtiyozlari va boshqa moliyaviy yordamlarni kengaytirish, ayniqla ekologik texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etishga qaratilgan tadbirkorlar uchun qo‘srimcha imkoniyatlar taqdim etilishi kerak.

2. Ekologik ta’limni rivojlantirish, tadbirkorlarga ekologik biznesni tashkil etishning amaliy jihatlarini o‘rgatish uchun maxsus kurslar va treninglar tashkil etilishi zarur. Shuningdek, ekologik sertifikatlash tizimini soddalashtirish va kengaytirish orqali ekologik mahsulotlarga bo‘lgan talab oshiriladi.

3. Hududiy farqlarni inobatga olib, viloyat va tumanlarga mos ekologik tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari ishlab chiqilishi lozim. Har bir hududda ekologik resurslarni samarali ishlatish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini kengaytirish va chiqindilarni qayta ishlashga oid aniq vazifalar belgilanadi.

4. Ekologik texnologiyalarni kichik biznes subyektlariga tatbiq etish uchun zarur infratuzilma yaratilishi kerak. Yashil energiya tizimlari, ekologik qurilish materiallari va boshqa innovatsion yechimlarni ishlab chiqish va texnik qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish ekologik biznesni rag‘batlantiradi.

5. Kichik biznes va davlat o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish uchun ular o‘rtasida samarali mexanizmlar ishlab chiqilishi zarur. Bu hamkorlik ekologik loyihalarda innovatsiyalarni rivojlantirish va investitsiyalarni jalb qilish imkonini beradi. Davlat kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha ilg‘or tajribalarni o‘rganishi va tadbirkorlarni rag‘batlantiruvchi mexanizmlar yaratishi lozim.

6. Ekologik innovatsiyalarni amalga oshirishda kichik biznes subyektlari duch kelayotgan byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish zarur. Buning uchun huquqiy va

normativ hujjatlarni takomillashtirish, davlat organlari tomonidan qulay va aniq ko'rsatmalar ishlab chiqilishi muhimdir.

7. O'zbekiston Respublikasining barqaror rivojlanish strategiyasida ekologik masalalarga yanada keng e'tibor qaratilishi kerak. Kichik biznesning yashil iqtisodiyotga o'tishdagi ishtirokini ta'minlash uchun strategiyada aniq vazifalar va mas'uliyatlar belgilanadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ekologik yo'nalishdagi loyihalarda davlat tomonidan berilgan yordam va imtiyozlar hisobiga faol ishtirok etmoqda. Ammo sohaning rivojlanishini tezlashtirish uchun moliyaviy va texnologik qo'llab-quvvatlash yanada kuchaytirilishi, hududiy va sektoral o'zgarishlarni hisobga olgan holda davlat va xususiy sektor o'rtaida samarali hamkorlik va ekologik innovatsiyalarni amalga oshirish bo'yicha strategiyalar ishlab chiqilishi lozim. Ushbu takliflar amalga oshirilganda, O'zbekiston yashil iqtisodiyotga o'tishda kichik biznes va tadbirkorlik uchun yangi imkoniyatlar yaratadi hamda ekologik barqarorlikni ta'minlashda katta hissa qo'shadi.

O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlikning shakllanishi va rivojlanishi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida muhim rol o'ynab kelmoqda. Mustaqillikdan so'ng boshlangan bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida xususiy mulkchilik va erkin tadbirkorlik faoliyati davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilandi. Davlat tomonidan yaratilgan muhit, soliq va qonunchilik islohotlari, institutsional o'zgarishlar ushbu sohaning taraqqiy etishiga xizmat qilmoqda.[9]

XULOSA

Bugungi kunga kelib, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik O'zbekiston iqtisodiyotining eng faol, dinamik va ijtimoiy ahamiyatga ega tarmoqlaridan biriga aylandi. Ish o'rinalini yaratish, eksport salohiyatini oshirish, mahalliy mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish va aholining turmush darajasini ko'tarishda tadbirkorlik hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

Shu bilan birga, tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishida hali hal qilinishi lozim bo‘lgan masalalar ham mavjud. Xususan, hududiy tengsizlik, infratuzilmaviy cheklovlar, moliyaviy resurslarga cheklangan kirish, hamda tadbirkorlarning huquqiy savodxonligini oshirish zarurati dolzarb bo‘lib qolmoqda. Bu borada davlat va xususiy sektor o‘rtasida yaqin hamkorlik, hamda xalqaro tajribaning amaliyotga joriy etilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda tadbirkorlik sohasining hozirgi holati — olib borilayotgan islohotlar samarasi sifatida ijobiy baholanishi mumkin. Kelgusida esa bu sohaning yanada barqaror, innovatsion va eksportga yo‘naltirilgan bo‘lishi uchun huquqiy, institutsional va moliyaviy asoslarni takomillashtirish ustuvor vazifa bo‘lib qolmoqda. Tadbirkorlikni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash orqali mamlakatda inklyuziv va barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. **Yangi O‘zbekiston strategiyasi.** — Toshkent: “O‘zbekiston”, 2021.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-yanvardagi PQ–2646-soni “Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni. — 2000-yil 25-dekabr.
4. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi rasmiy ma’lumotlari. — www.stat.uz
5. Rahimov R., Jo‘rayev M. **Tadbirkorlik asoslari.** — Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2020.
6. Qodirov A., Normurodov N. **Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik.** — Toshkent: “Iqtisodiyot”, 2019.
7. Abdurahmonov Q.X. **Bozor iqtisodiyoti nazariyasi.** — Toshkent: “Iqtisodiyot”, 2017.

8. Xalqaro moliya korporatsiyasi (IFC) va Jahon bankining “Doing Business” hisobotlari. — www.doingbusiness.org
9. Tohirova D. *Innovatsion tadbirkorlik va zamonaviy biznes modeli.* — Toshkent: “IQTISOD-MOLIYA”, 2021.